

## NURALI QOBIL HIKOYALARIDA QAHRAMON NUTQI

**Muhiddinov Davlatbek Muxtorjon o'g'li**

Farg'ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Email: [muhiddinovdavlatbek97@gmail.com](mailto:muhiddinovdavlatbek97@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Maqola Nurali Qobil hikoyalarida qahramonlarning nutqi, qahramonlar insoniy qiyofasi, nutq masalasi, obrazlar tasviri, shuningdek inson xarakteri ochib berildi.

**Kalit so'zlar:** nutq, badiiy nutq, qahramonlar nutqi, qahramonlar insoniy qiyofasi, Nurali Qobil, hikoya, inson xarakteri.

### HEROIC SPEECH IN NURALI KABIL'S STORIES

#### ABSTRACT

The article reveals the speech of the heroes in the stories of Nurali Kobil, the human image of the heroes, the issue of speech, the depiction of images, as well as human character.

**Keywords:** speech, art speech, speech of heroes, human image of heroes, Nurali Kobil, story, human character

### ГЕРОИЧЕСКАЯ РЕЧЬ В РАССКАЗАХ НУРАЛИ КАБИЛЯ

#### АННОТАЦИЯ

В статье раскрывается речь героев в рассказах Нурали Кабил, человеческий образ героев, проблема речи, изображение образов, а также характер человека.

**Ключевые слова:** речь, художественная речь, речь героев, человеческий образ героев, Нурали Кабил, повесть, человеческий характер.

#### KIRISH

Badiiy adabiyotga xos nutq (badiiy asarlar tili) badiiy nutqdir. Yuqorida ko'rib o'tganimiz nutq turlarining har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bir-biridan alohida, mustaqil holda yuzaga chiqsa, badiiy nutqda nutqlarning hamma turi qatnashishi mumkin. Badiiy nutq alohida tur nutq bo'lib, u davrning muhim ijtimoiy masalalarini badiiy obrazlar va badiiy bo'yoqlar vositasida tasvirlaydi hamda

kitobxonga birinchi galda estetik ta'sir ko'rsatadi. Badiiy nutq hissiyotga boy bo'ladi, u o'quvchilarda ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi, yomonlik va yaxshilikni ajratishga, olijanob insoniy fazilatlarni tarbiyalashga, hayotga, mehnatga muhabbat hislarini o'stirishga xizmat qiladi

Badiiy nutqda yozuvchi tildan manzaralar, obrazlar va ularning o'ziga xos xarakterlarini, xususiyatlarini yaratish uchun foydalanar ekan, uning mahorati, tajribasi, tilni qadrlashi ayni mana shu jarayonda namoyon bo'ladi. O'quvchini ishontirish uchun, ishontirishgina emas, unga g'oyaviy va estetik jihatdan ta'sir qilish, unda yuksak his-tuyg'ular uyg'otish uchun ijodkor voqealar, manzaralarni oddiy qora-oq tasvirda emas, kamalak ranglaridek turfa ranglarda, turli badiiy tasvir vositalari (o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a va boshqalar)dan foydalangan holda tasvirlaydi. Badiiy asar tilida til lug'at boyligining hamma qatlamlariga xos so'zlar (eskirgan va yangi, zamonaviy; adabiy va noadabiy; o'z qatlamga xos), frazeologik iboralar, maqollar va matallar qatnasha oladi.

*–Ena, sariq qiz qanaqa bo'ladi? – so'radim tepalikdan tushayotgandan so'ng gaplariga ishonmaganimni va endi bunday nojo'ya ishlar qilmasligimni yana bir bor ta'kidlash uchun jiddiy ohangda.*

*–Qanaqa bo'lardi. Tiring'idan tortib sochigacha sap-sariq bo'ladi. Oti o'chsin!*[3,25]. Yozuvchi ushbu parchada diologik nutq turini qo'llaydi. Buvining tilidan aytilgan quyidagi parchada, yani "Tiring'idan tortib sochigacha sap-sariq bo'ladi" jumlasida sifatlash badiiy tasvir vositasidan foydalanadi

"Yozuvchining "Azob" hikoyasida esa kompozitsiyaning qismlari sifatida monologik, diologik nutqlar bilan birga muallif nutqi ham faol ishlatilgan. Ayniqsa, Hayitboy oqsoqolning o'z-o'ziga gapirishi, odamlar bilan qurgan suhbat o'rtasida hikoya kompozitsiyasini belgilovchi asosiy vosita bu uning ichki psixologiyasi bilan ijtimoiy muloqotining o'zaro taqqoslash imkoniyati borligi diqqatga sazovar, lekin muhimi hikoyaning sujet kompozitsion qurilishi boshqalarga o'xshamaganligida. Ya'ni hikoya tugundan boshlanib kutilmagan yechim - Hayitboyning o'limi bilan tugaydi. Aslida bemor va o'sal yotgan uning oshnasi Allomurod, biroq undan oldin Hayitboy omonatini topshiradi[1,41-42]."

"Taniqli yozuvchi Nurali Qobul hikoyalarida voqea bayonini o'quvchiga yetkazish uchun buvi va bola nutqidan keng foydalangan. Bu usul yozuvchiga hikoyanavisning ichki kechinmalarini ifodalashga ko'proq imkon bersa, bolaning idroki etmaydigan ba'zi joylarini yozishda qiyinchilik tug'diradi. Yozuvchi bola tilidan hikoya qilar ekan, uning ruhiyatiga va tiliga moslashishi kerak. Bunday holatda muallif tilida bolaning yosh xususiyati, tajribasizligi, o'yinqaroqligi, xullas, uning butun tabiati ko'zga tashlanadi. Asar voqealarining birinchi shaxs tilidan

bayon qilinishi hikoyachi qahramonning ruhiy holatini, qalb kechinmalarini ochishda qo'l kelgan. [2, 34].”

Yozuvchining “Kaptarlar qaytmagan tun” hikoyasi bosh qahramoni Oybuvi momo ko‘p qiyinchiliklar ko‘rgan ayol bolalariga mehribon ona ekanligi Momoga berilgan ta’riflarda uchramaydi, lekin yozuvchi shunday belgilarni momoning nutqiga singdira olgan. *“Sizlar ham kichik bo‘lgansizlar. Kichiklarga ham non beringlar, - dedi u katta baliqlarni tergab, - uyalmaysizlarmi o‘z bolalaringizning nonini tortib olib yeyishga. Odamlarga o‘xshab jonivorlar orasidan ham mehr-oqibat ko‘tarilyapti[3,37].”* Mazkur parchada Momoning tilidan aytilgan “Odamlarga o‘xshab jonivorlar orasidan ham mehr-oqibat ko‘tarilyapti” deyishi xuddi butun insoniyatga aytilganidek tuyildi. Hikoyada kampirning yakka-yu yagona qizi farzandsizlikdan qiynaladi, odamlarning gap-so‘zlaridan oilasi buziladi. Keyin Panjikent degan tog‘ tomonga qishloqning molini boqib yuradigan Elmurod ismli yigit bilan qochib ketadi. Elmurod o‘ta yuvosh va yaxshi inson ekanligi muallif nutqidagi “Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan” ta’rifi orqali ochilgan. Hikoya bosh qahramoni “Oybuvi momo” ismi faqat hikoyaning birgina qismida uchraydi. Ismni tanishtirish yozuvchining tilidan emas, balki hikoya qahramonlaridan biri Safsargul orqali amalga oshirilgan. *Sutingiz kundan kun suyilib boryapti Oybuvi momo, - dedi Safsargul[3,42].* Bu esa yozuvchining diologik nutqdan samarali foydalanganligini ko‘rsatadi.

Yozuvchi hikoyada hech qaysi obrazga roviy nutqi orqali ta’rif bermagan, balki obrazlar o‘z nutqi, yoki qilayotgan xarakterlari orqali ochib berilgan. Shunday qahramonlardan biri sut oluvchi Safsargul obrazi sanaladi. Bu obraz “tadbirkor” va “aqli” halol va haromdan qo‘rqmaydigan obraz. Uning so‘zga chechanligi momo bilan bo‘lgan suhbatlarida anglashiladi. *“Hademay sut oluvchi keladi. Unga kamida bir kadi sut berish kerak. Bo‘lmasa u kampirga oz pul beradi. Hech kimga gap bermaydigan Safsargul sutchi kampirning sutini hammadan arzonga oladi. Kampir buni biladi. Qo‘shnilar tushuntirgan. Biladi-yu indamaydi. Biror nima degudek bo‘lsa Safsargul og‘zidan chiqqan gapni yoqasiga tarmashtiradi. Safsargul shartlashilgandek biror so‘m yoki bir necha tiyin kam bersa ham indamay olaveradi. “Bari bir, bir o‘zimga shuncha sut kerak emas. Pul bermasayam mayli. Odamlar ichib alqasa bas. Sut bergandan savob ish bormi dunyda?”— o‘ylardi o‘zicha.*

*Xudo xohlasa bu pullarni nevara to‘yiga ishlatasiz, - deydi Safsargul kampirni og‘iz ochirmaslik uchun nozik joyini topib.[3,40]*

Hikoya so‘nggida Oybuvi momoning vafot etganligi aniq aytilmagan, buni biz muallif nutqi orqali anglab olamiz.

*“Ertalab baliqlar g‘ujg‘on o‘ynagancha qolaverdi. Musichalar ostonada to‘planib, nimanidir kutishardi. Echki erta-indin kampirning yettisiga so‘yilishini bilgandek, hovlini boshiga ko‘tarardi...*

*Sutni olib ketish uchun kelgan Safsargul avval kampirni chaqirdi. Javob bo‘lmagach, eshagidan tushib, musichalar galasini uchurgan uyg kirdi. Kirdi-yu dodlagan qaytib chiqdi...*

*Quyosh mashriqqa og‘ishi bilan beg‘ubor osmonni to‘ldirib uchib kelgan kaphtarlar galasi qirga qo‘nmadi. Ular yarim tunda ham uyalariga qaytmay, qishloq ustida aylanib uchishardi...”[3,47]*

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda Nurali Qobil hikoyalarida nutqning turli shakllaridan foydalanish orqali qahramonlar xarakteri, portreti, fe‘l-atvori mahorat bilan ochib berilgan. Yozuvchining qator hikoyalarida bolalik xotiralari haqida yoritib beradi. Hikoyalarni o‘qish jarayonida yozuvchining o‘z shaxsiy “meni” duyoqarashi, insoniyligi, pokligi haqida bilib olishimiz mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Йўлчиев Қ. Нурали Қобулнинг прозаик махорати – Тошкент: Ма’rifat bitiklari 2021.-252 bet.
2. То’uchiyev А.Х.Нурали Qobil nasri poetikasi(hikoya va qissalar misolida):f.f.d.(PhD) diss.-G.,2022.-172 bet.
3. Нурали Қобул. Оқ каптарлар. –Т.: “Ўзбекистон”, 1990, -256 б.
4. Arastu. Petika. Axloqi kabir. Ritorika.-Toshkent:Yangi asr avlodi, 2012.
- 5.Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish.-Toshkent:Fan,2007.